

Fayziyeva Shamsiya Bekmirzo qizi
O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika
instituti 3-kurs talabasi
Tel.: +998947655995
E-mail:fayziyevashamsiya2003@gmail.com

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI YOZUVGA O‘RGATISHDA DUCH KELINADIGAN MUAMMOLAR

Annotatsiya: Maqolada boshlang’ich sinf o’quvchilarini yozuvga o‘rgatishda duch kelinadigan muammolar va ularni bartaraf etish usullari keltirilgan. Yozuvning chiroyli bo’lishi uchun ham bir nechta tavsiyalar va maslahatlar berilgan. Shu bilan bir qatorda, husnixatga o‘rgatishning metodik shartlari ham yorqin tushuntirib berilgan.

Kalit so’zlar: husnixat, yozuv texnikasi, metodik shartlar, yozuv malakalari.

Abstract: The article presents the problems encountered in teaching elementary school students to write and ways to overcome them. Several recommendations and tips are also given for the writing to be beautiful. In addition, the methodical conditions of teaching husnikhat are clearly explained.

Key words: calligraphy, writing technique, methodical conditions, writing skills.

Hozirgi kunda boshlang’ich sinflarga yozishni o‘rgatish bir qator qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Bunga sabablar turlicha bo’lishi mumkin. Masalan, o’quvchilarda boshlang’ich ko’nikmalarining yo’qligi ya’ni maktabgacha ta’limda o’qimaganligi, yoki yozish jarayonida ruchkani noto‘g’ri ushslash, to’g’ri o’tirtmaslik kabi texnik xatolarni qo’llashlari ayrim qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Lekin hozirda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining katta guruhlarida nutq bilan birga yozuv mashg’ulotlari ham o‘rgatilmoqda. Savod chiqarib kelayotgan bolalar uchun yozish qiyinchilik tug‘dirmas, biroq hali bunday malakani o’tamagab nirlinchi sinf o’quvchilari uchun harf va harflarni to’g’ri qo’shib yozish qiyin va muhim mashg’ulot hisoblanadi.

Alifbegacha bo’lgan davrda bolalar yozuvga tayyorlaydigan mashqlarni bajaradilar. Avvalo, bolalarni yozuv mashqini bajarish vaqtida partada to’g’ri va erkin o’tirishga, ruchkani to’g’ri ushslashga, daftarni parta ustiga normadagi qiyalikda qo’yishga o‘rgatish zarur. Bunda o’quvchilar xatoga yo’l qo’ymasliklari uchun „Yozganda to’g’ri o’tir!“ nomli rasmdan foydalilaniladi. Mashq daftariga yozishdan oldin o’qituvchi o’quvchilarni shu daftar chiziqlari bilan tanishtiradi va unga harflarni to’g’ri yozishga, harflar oralig’ini to’g’ri chamalashga o‘rgatadi.

Savod o‘rgatishning dastlabki davridagi o’quv mashg’ulotlarini yetti yoshli bolaning yosh xususiyatlarini, uning diqqatini hisobga olgan holda tashkil etiladi. Bu davrda o’quvchilar uzoq vaqt bir xil ish bilan shug’ullana olmaydilar. Shuning uchun ham ish turi har 10-15 daqiqada boshqasi bilan almashtirilib turilishi lozim. Shu bilan birga, darsning har bir bosqichida o’tkaziladigan mashg’ulotlar dars rejasi va maqsadiga bo’ysundirilgan bo’lishi lozim. Darsda ish shunday uyushtirilishi kerakki, hikoya qilish va suhbatlar o’quvchilarning faol harakati, jismoniy mashqlar bilan ham almashtirib turiladi. „Alifbe“dan rasmlar mazmuni asosida gapni so’zlarga bo’lish yuzasidan olib borilgan ishdan so’ng o’quvchilarga ertak ayttiriladi.

So'ng ular shu ertak personajlarining rasmini chizadilar. Keyin o'qituvchi shu ertakdan yoki suhbat asosida tuzilgan qisqa bir gapni aytib, bolalardan shu gapda nechta so'z borligini so'raydi. Bolalar shu gapdag'i so'zlar sonini aytadilar.

Yozuv darsida o'qituvchining tushuntirishi o'quvchilarning barmoq harakati yuzasidan bajaradigan mashqlar bilan almashtirib turiladi, ya'ni o'quvchilar ruchka ushlagan qo'llaridagi barmoqlari qanday ko'tarilishi va pastga tushirilishini ko'rsatadilar. O'quvchilar yozadilar, o'qituvchi bolalar yozuvini kuzatib turadi. Ularda yozuvdan charchash holati sezilsa, qo'l va barmoqlarni harakatga keltiruvchi mashqlar bajartiriladi. So'ng yana yozuv davom ettiriladi.

Yozuv, barchaga ma'lum bo'lganidek, kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi ekanligi barchaga ma'lum.

Yozuvni o'rgatishda muammolarga duch kelmaslik uchun o'quvchilarga quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

- 1.Yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanish;
- 2.Parta ustida daftarni to'g'ri qo'yish;
- 3.Yozayotganda gavdani to'g'ri tutish va tirsaklarni to'g'ri harakat qildirish;
- 4.O'z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o'rgatish;
- 5.Tovushni bosma harfga, bosma harflarni esa yozma shaklga aylantirishga o'rgatish;
- 6.Harflar shaklini idrok etishga o'rgatish;
- 7.Harflarni bir-biriga bog'lab yozishga o'rgatish;
- 8.Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda tekis yozishga o'rgatish;
- 9.Daftar chizig'idagi qatorlarni to'g'ri to'ldirish, sarlavha, oy va kunlarni to'g'ri yozish;
- 10.Harflarning 75 daraja qiyaligini to'g'ri saqlash.

Yuqorida keltirilgan qoidalarga amal qilingan holda o'quvchilarga yozuv o'rgatilsa ular yozishda qiyonalishmaydi va yozuvlari ham chiroyli bo'ladi.

Bundan tashqari chiroyli yozuvni o'rgatish uchun multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilar uchun qiziqarli va samarali bo'ladi. Bugungi texnologiyalar rivojlanib borayotgan zamonda rivojlanib borayotgan davlatlarda texnika imkoniyatlaridan samarali foydalanish allaqachon yo'lga qo'yilgan. Faqat buning bir nechta talablariga to'g'ri yondashilishga e'tibor qaratish lozim. Foydalilanligidan material mazmuni bola yoshiga mos bo'lishi, qiziqarli bo'lishi, bolaning intellektual imkoniyatlarini ochish uchun xizmat qilishi, ma'nnaviy olamini boyitish uchun xizmat qilishi lozim. Shundagina o'quvchilarning multimedia vositalari, slaydlar va smart lavhalardan foydalanishlari foydali va samarali bo'ladi.

Aniq va to'g'ri husnixatda yozishga nafaqat sinf ishida, shu bilan birga barcha sinf ishlarining turlarida va sinfdan tashqari yozuv ishlarida, ular tomonidan tayyorlangan ko'rgazmalar, jadvallar va shiorlarda ham amal qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.G'ulomov „Husnixat“ 1-sinflar uchun –T:O'zbekiston 2002.
- 2.G.Rahimova. Ona tili va adabiyot(bolalar adabiyoti). O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU, – 308-bet.
3. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: “INNOVATSIYA-ZIYO”, 2020.
4. Borodich A.M. Bolalar nutqini rivojlantirish usullari. – M., 2014.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2018.
6. Bolshova T.V. Biz ertakdan o'rganamiz. – Sankt-Peterburg, 2009.
- 7.Gurovich L.M. Baby Boy va kitob /m. Gurovich, l.b. Qirg'oq, v.i. Loginov. – M., 2009.
- 8.Nest: Bolalar bog'chasida rivojlanish va ta'lif dasturi /V.I. Loginova, T.I. Babaeva, N.A. Notek va boshqalar. Ed. T.I. Babaeva, Z.A. Mixailova, L.M. Gurovich: Ed. 2-chi. – SPB, 2007.
9. Mirzayev I.K, Muhiddinova B., Ro'zmonova R. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. – Samarqand, SamDU, 2019.
10. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: “NOSIR”, 2009.